



ILMIY ELEKTRON JURNAL

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA ELEKTRON TIJORAT TIZIMLARINI QO'LLASHNING XORIJ TAJRIBASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI

Mustafayeva Firangis Shukurulloyevna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tayanch doktoranti

mustafoeva.farangiz@gmail.com

Annotation

Mazkur maqola aksiyadorlik jamiyatlarida elektron tijorat tizimlarini qo'llashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati hamda O'zbekistonning elektron tijorat sohasida xorijiy bozorlarda muvaffaqiyatli ravishda raqobat qilishning asosiy yo'llarini va strategiyalarini bayon qiladi. Mamlakat iqtisodiyotida elektron tijoratni rivojlantirishning ahamiyati yanada muhim. Yangi O'zbekistonning 2022—2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida raqamli iqtisodiyotni iqtisodiy rivojlanishning asosiy "drayveri"ga aylantirish va uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirish rejalashtirilgan bo'lib, bunda elektron tijorat asosiy o'rnlardan birini egallaydi. Maqolada muallifning tadqiqoti asosi O'zbekiston hududidagi kompaniyalar uchun xorijiy bozorlardan muvaffaqiyatli foydalanish, yangi bozorlar va mijozlar bilan samarali ish olib borish haqida ma'lumotlar maqolada ilgari surilgan.

Annotation

В данной статье излагается зарубежный опыт применения систем электронной коммерции в акционерных обществах и ее практическая значимость, а также основные пути и стратегии успешной конкуренции Узбекистана на зарубежных рынках в сфере электронной коммерции. Значение развития электронной коммерции в экономике страны еще более важно. В новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы планируется сделать цифровую экономику главным "драйвером" экономического развития и увеличить ее объем как минимум в 2,5 раза, при этом электронная коммерция займет одно из ключевых мест. В статье представлена информация об успешном использовании зарубежных рынков для компаний на территории Узбекистана, эффективной работе с новыми рынками и клиентами.

Abstract

This article describes the foreign experience of using e-commerce systems in joint-stock companies and its practical importance, as well as the main ways and strategies for successfully competing in foreign markets in the e-commerce sector of Uzbekistan. The importance of the development of e-commerce in the country's economy is even more important. In the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026, it is planned to turn the digital economy into the main "driver" of economic development and increase its volume by at least 2.5 times, in which e-commerce occupies one of the main places. In the article, the basis of the author's research is information about the successful use of foreign markets for companies in the territory of Uzbekistan, effective work with new markets and customers.

Kalit so‘zlar

Aksiyadorlik jamiyatlari, elektron tijorat, elektron tijorat biznesi, elektron tijorat sotuvchilari, korxonalar, raqamli iqtisodiyot, elektron biznes, Online bank xizmatlari, elektron bozor.

Ключевые слова

акционерные общества, электронная коммерция, бизнес электронной коммерции, поставщики электронной коммерции, предприятия, Цифровая экономика, электронный бизнес, услуги онлайн-банкинга, электронный рынок.

Keywords

Joint stock companies, e-commerce, e-commerce business, e-commerce sellers, enterprises, digital economy, e-business, Online banking services, e-market.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasida elektron tijoratni tadbirdorlik faoliyatining eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rish mumkin. Soha mutaxassislarining fikricha, respublikada elektron tijoratni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar va resurslar mavjud: aholining kompyuter savodxonligining o‘sishi, past trafik narxlari bilan yuqori sifatli internetning butun mamlakat bo‘ylab tarqalayotganligi va boshqalar. Axborot texnologiyalarining global miqyosida rivojlanishi iqtisodiyot va jamiyatdagi o‘zgarishlar uchun dastakka aylandi. Bu jarayonlarning asosiy tarkibiy qismlaridan biri Internetning iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga kirib borishidir. So‘nggi paytlarda Internet orqali tijorat aloqalari doirasi sezilarli darajada kengaydi, u quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: – internet orqali tovarlarni sotish va sotib olish; – elektron tarmoqlardan foydalanish orqali pul mablag‘larini o‘tkazish; – elektron shaklda axborot savdosi va boshqalar.

Elektron tijorat zamонави иqtisodiyotda juda yuqori temp bilan rivojlanayotgan sohalardan biridir. Unga biror-bir kompaniyaning raqamli texnologiyalar va ular beradigan imtiyozlarga asoslangan, foya keltiradigan faoliyati sifatida qaraladi. Yangi tijorat muhitiga jalb qilingan xaridorlar ma’lum imkoniyatlar va imtiyozlarga ega bo‘ladilar. Tashkilotlar oldida turgan vazifalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda ancha tez va eng kam xarajat bilan hal etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining yirik kompaniyalari, kichik va

o‘rtta biznes vakillari O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lib turgan shunday paytda mamlakat iqtisodiyotining ulushi ortib borayotgan elektron qismini egallay boshladi.

Elektron tijoratni rivojlantirishning asosi global Internetdan foydalanish hisoblanadi. Elektron tijoratning rivojlanish darajasiga global tarmoqning kirib borish darajasi va foydalanuvchilar soni kabi ko‘rsatkichlar bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Texnik nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi interneti mamlakatda elektron tijoratni rivojlantirishga tayyor. O‘zbekiston Respublikasi hududining katta qismi internet bilan qamrab olingan: internetdan foydalanuvchilar sonining tezlik bilan o‘sishi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi kuzatilmoqda, bu tovarlar va xizmatlarni xarid qilish uchun zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanadigan potensial xaridorlar soniga o‘zining ijobjiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Elektron tijoratni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash uchun nafaqat Internet tarmog‘iga ularish va tashkilotlarning zamonaviy komp’yuterlar bilan texnik jihozlanishi, balki veb-sayt va elektron pochta manzilining mavjudligi ham katta ahamiyatga ega. Tashkilotning shaxsiy veb-sayti elektron iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi:

- sayt tashkilot faoliyati bilan bog‘liq foydali ma’lumotlarni e’lon qiladi: tahlil va bozor yangiliklari, statistik tadqiqotlar, tendensiylar, mijozlar bilan muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari, buning nazariy va amaliy asoslari;
- biznes, tashkilot yangiliklari joylashtiriladi;
- saytga portfolio yoki mahsulot tasviri joylashtiriladi. Iste’molchi taklif etilayotgan tovarlarni ko‘radi, bu e’lon qilingan sifatni, xususiyatlarini tasdiqlaydi, kompaniyaning professionalligini ko‘rsatadi;
- elektron shaklda axborot savdosi va boshqalar;
- sayt iste’molchiga kompaniya bilan aloqa o‘rnatish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar tahlili

Elektron tijorat innovatsion iqtisodiyotning istiqbolli tarkibiy qismlaridan biridir. Shuning uchun ham uning o’sish darajasini o’lchash metodologiyasi xorijlik va mahalliy olimlar va mutaxassislarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda.

Aksiyadorlik jamiyatlarida elektron tijorat tizimi va tadbirkorlikni shakllantirishning nazariy asoslariga oid masalalar N. Vulkan, G. Dunkan, D. Kozie, M. Makartney, L. Mitchell, A. Sammer, T. Vilson kabi xorijiy olim va iqtisodchilarning ishlarida o‘rganilgan.

Elektron tijoratdagi tashkiliy-iqtisodiy masalalar yaqin xorij mamlakatlaridagi L.E. Varakin, N.I. Gerashchenko, A. A. Kantarovich, O. A. Kobelev, G. Ya. Rezgo, L. D. Reyman, V. I. Skiba, I. V. Uspenskiy, V.V. Tsaryov olimlarning ishlarida namoyon bo‘lgan .

Elektron tijoratda nazariya va amaliyot masalalari R.I.Isaev, T.K. Iminov, X.A. Muxitdinov. M.M. Yo‘ldoshev asarlarida keltirilgan bo‘lib, ular elektron tijorat tizimining mohiyatini kontseptual vosita sifatida ham ko‘rib chiqdi. Elektron hujjat aylanishi va raqamli obuna masalalari R.I.Isaev, P.F. Xasanov, X.P. Xasanov va boshqalar tomonidan yoritilgan.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish strategiyasi qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston elektron tijorat sektori oldida ko‘p qirrali vazifa va imkoniyatlar turibti. Ekotizimda ro‘y berayotgan faol siyosiy darajadagi o‘zgarishlar, shuningdek, raqamli iqtisodiyotni yanada kengroq rivojlantirish sohaning hozirgi past darajadan keljakda o‘sishiga yaxshi belgidir. Mazkur Strategiya, O‘zbekiston Respublikasida elektron tijorat ekotizimining har bir asosiy komponenti doirasida o‘sish yo‘lidagi to‘sislarni bartaraf etish bo‘yicha tuzilgan yo‘l xaritani ifoda etadi. Uning amalga oshirilishi ustuvor vazifalardan biri etib belgilanishi kerak, chunki O‘zbekistonda elektron tijorat sohasinig rivojlanishi “Raqamli O‘zbekiston–2030” Strategiyasida keltirilgan kontseptsianing amalga oshishi salmoqli hissa qo‘sha oladi(O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish strategiyasi).

Elektron tijorat korxonalari uchun biznes muhit rivojlanishiga raqamli iqtisodiyotga siyosiy darajada ortib borayotgan e’tibor turtki bo‘layotganligiga qaramasdan, soliq sohasi bilan mavjud muammolar tadbirkorlarga kata muammo bo‘lmoqda. Mavjud imtiyozlar, elektron tijorat korxonalari tomonidan elektron tijorat reestridan foydalanish, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) va daromad solig‘i bilan bog‘liq bo‘lgan to‘lov yuklari, rivojlanayotgan elektron tijorat sohasiga ta’sirini baholash maqsadida, qaytadan ko‘rib chiqilishi zarur. Yana bir muammo shundaki, amaldagi soliq qoidalari savdo maydonchalar uchun tushunarsiz. Savdo maydonchalar soliqni aylanma mablag‘lar hisobidan emas, balki komissiyalar hisobidan to‘lashi kerak. Bu esa, tadqiqotda soliq qonunchiligidagi inobatga olinmagan yoki to‘g‘ri talqin qilinmaganini tahlilqilishga undadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida aksiyadorlik jamiyatlarida elektron tijorat tizimlarini qo‘llashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo‘llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston Respublikasida elektron tijorat uchun infratuzilmani shakllantirish faol rivojlanmoqda. Shu bilan birga, aholi va tashkilotlarning elektron tijorat muhitiga jalb etilishi yetarli darajada emas: elektron tijorat operatsiyalari hajmi hozirda asosan faqatgina mahalliy bozor darajasida amalga shirilmoqda. Bugungi kunda Internet orqali savdoning assosiy yo‘nalishi iste’mol tovarlarini sotish va sotib olishdir. Noyob mahsulot, masalan, eski bronza haykalcha, siz “jonli” ko‘rishni va qo‘llaringiz bilan teginishni xohlaysiz. Ammo mobil telefonlar yoki kompyuterlar kabi keng tarqalgan mahsulotlar ham borki, odamlar faqat vizual va texnik xususiyatlari uchun buyurtma berishga tayyor. Bularning barchasi O‘zbekistonda allaqachon ishlab chiqilmoqda. Mahalliy onlayn do‘konlarni tashkil etish darajasi doimiy ravishda oshib bormoqda. O‘z mahsulotlari yoki xizmatlarini sifat va vizual idrok etishning yuqori standartlariga javob beradigan onlayn do‘konlar soni ortib bormoqda. Bu bozorning turli segmentlarida raqobat darjasining oshishi bilan bog‘liq. Shu sababli, bozorda o‘z mavqeini saqlab qolish uchun ishbilarmonlar

doimiy ravishda o‘z bizneslarini rivojlantirishlari va shu bilan O‘zbekiston Respublikasida elektron tijoratning rivojlanishiga hissa qo‘sishlari kerak. Bugungi kunga kelib, onlayn do‘konlarni yaratish mahalliy onlayn biznesning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Texnologiyaning jadal rivojlanishi iste’molchilarning ushbu sohaga qiziqishining kutilmagan o‘sishiga olib keldi.

Elektron tijoratning afzallikkleri ko‘p: uydan chiqmasdan xarid qilish, qisqa vaqt ichida bir qator tematik saytlarda taklif etilayotgan tovarlarning keng ro‘yhati bilan tanishish va boshqalar. Elektron tijoratni qiyosiy jihatdan o‘rganib chiqish mamlakat elektron tijoratining holati, shuningdek, uning o‘ziga xos muammolari va xususiyatlarini tahlil qilish, uni yanada rivojlantirish bo‘yicha bir qator takliflarni ishlab chiqishga imkon berdi va shuning natijasida quyidagilar taklif qilinmoqda:

- tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning elektron shakllarida axborot xavfsizligini ta’minlovchi aloqa va telekommunikatsiya infratuzilmasini takomillashtirish;

- elektron tijorat sohasidagi amaldagi me’yoriy-huquqiy bazani qayta ko‘rib chiqish va muvofiqlashtirish, qonun loyihalari barcha manfaatdor shaxslar uchun ochiqligini, ko‘rib chiqish va mulohazalarni ta’minlash;

- biznes uchun elektron tijoratni qo’llab-quvvatlovchi onlayn ilovalarni ishlab chiqish, shuningdek, mobil qurilmalar foydalanuvchilariga yo‘naltirilgan qidiruv tizimlarini rivojlantirishni rag‘batlantirish;

- tadbirkorlik faoliyatida zamonaviy internet va axborot texnologiyalaridan foydalanishni o‘rgatish bo‘yicha chora-tadbirlar, shu jumladan tashkilotlarning elektron auksionlarda ishtirok etishi uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlarni tashkil etish;

- mamlakat fuqarolari o‘rtasida elektron tijorat bo‘yicha savodxonlikni oshirishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlarini doimiy o‘tkazish; 1

Aksiyadorlik jamiyatlarida elektron tijorat tizimlarini qo’llashning afzalliklarini uchta asosiy toifaga bo‘lish mumkin: tashkilotlar uchun imtiyozlar, mijozlarning afzallikkleri, jamiyat uchun foydalari. Biz bularni izohini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin(1-jadval)2:

¹ Gulyamov S.S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. T.: “Iqtisod Moliya” nashriyoti, 2019. 386 bet

² Internetdagи ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Aksiyadorlik jamiyatlarida elektron tijorat tizimlarini qo'llashning afzalliklari³

Tashkilotlar uchun imtiyozlar ⁴	<ul style="list-style-type: none"> - tashkilot minimal kapital qo'yilmalar bilan o'z bozorini milliy va xalqaro bozorlarga kengaytirishi mumkin. Tashkilot butun dunyo bo'ylab ko'proq mijozlar, yaxshiroq yetkazib beruvchilar va mos biznes sheriklarini osongina topishi mumkin;
	<ul style="list-style-type: none"> -elektron tijorat tashkilotga axborotni raqamlashtirish orqali qog'oz ma'lumotlarini yaratish, tarqatish, qidirish va boshqarish jarayonlari xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi;
	<ul style="list-style-type: none"> - elektron tijorat biznes jarayonlarini soddalashtirish va ularni tezroq va samaraliroq qilishga yordam beradi;
	<ul style="list-style-type: none"> - elektron tijorat tashkilot samaradorligini oshiradi. U "tortish" turidagi ta'minotni boshqarishni qo'llab-quvvatlaydi. Ta'minot zanjiri boshqaruvida biznes jarayoni mijozdan so'rov qabul qilinganda boshlanadi va ular "o'z vaqtida" dan foydalanadilar.
Mijozlarning afzalliklari ⁵	<ul style="list-style-type: none"> - 24x7 qo'llab-quvvatlash (mijoz istalgan vaqtda, istalgan joyda, istalgan joyda mahsulot yoki kompaniya tomonidan taqdim etilgan har qanday mahsulot/xizmatlar bo'yicha so'rovlarni amalga oshirishi mumkin);
	<ul style="list-style-type: none"> - elektron tijorat ilovasi foydalanuvchiga ko'proq imkoniyatlar va mahsulotlarni tezroq yetkazib berish imkonini beradi;
	<ul style="list-style-type: none"> - elektron tijorat ilovasi foydalanuvchiga solishtirish va arzonroq va yaxshiroq variantni tanlash uchun ko'proq imkoniyatlarni taqdim etadi;
	<ul style="list-style-type: none"> - elektron tijorat tashkilotlar o'rtafigi raqobatni kuchaytiradi va buning natijasida tashkilotlar mijozlar uchun sezilarli chegirmalar beradi.
Jamiyat uchun foydalari ⁶	<ul style="list-style-type: none"> - mijozlar do'konga mashinada borishlari shart emas, bu yo'l harakati va havo ifloslanishini kamaytiradi;
	<ul style="list-style-type: none"> - elektron tijorat hukumatga sog'liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy xizmatlar kabi davlat xizmatlarini arzonlashtirilgan narxlarda va takomillashtirilgan tarzda taqdim etishga yordam beradi

³ Internetdagи ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

⁴ Khalilov N.Kh., Safina N.T. —Digitalization - as the main factor in the development of the quality management system of the textiles industry of the Republic of Uzbekistan. BIO Web of Conferences 65, 03004 (2023)

⁵ Захаров А.Н., Чеханова Т.А. Тенденции развития электронной торговли в международной практике // Российский внешнеэкономический вестник. 2019. № 6. С. 102-106.

⁶ Ядова Н.Е. Современное состояние мирового рынка электронной коммерции и перспективы его развития // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Экономика. 2019. № 2. С. 116-125.

Yuqoridagi jadvaldan shuni ko‘rishmiz mumkinki, aksiyadorlik jamiyatlarida elektron tijorat tizimlarini qo‘llashning uchta asosiy toifasi ham o‘z o‘rnida muhim ahamiyatga ega. Ulardan aksiyadorlik jamiyatlarida foydalanish korxona xodimlariga va mijozlar juda kata qulayliklar keltiradi.

Ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda global elektron tijoratning umumiyligi hajmi 36,6 trillion dollardan oshdi. B2B (“biznesdan biznesga”) global elektron tijorat savdosining 80% dan ortig‘ini, B2C (“biznesdan iste’molchilarga”) esa 20% dan kamroq‘ini va transchegaraviy segment 1% dan sal ko‘proqni tashkil qiladi. Chakana elektron tijorat bozori 2022-yilda 11,09 trillion dollarga baholangan va 2023-yilda 12,36 trillion dollarga yetgan. 2023-yildan 2027-yilgacha butun dunyo bo‘ylab elektron tijorat o‘rtacha 14,7 foizga o‘sishi prognoz qilinmoqda, 2027-yilda daromad esa katta 15,2 trillion dollarni tashkil etadi⁷.

Hisobotga ko‘ra, elektron tijorat bir necha mamlakatlarda sezilarli darajada o‘sdi. Koreya Respublikasi 2020 yilda eng yuqori ulush 25,9% ni tashkil etdi, bu o’tgan yilgi 20,8% dan (2-jadval).

2-jadval

Elektron tijoratning davlatlar o‘rtasidagi o‘sish⁸

№	Davlatlar	2021	2022	2023
1	Avstraliya	5.6	6.3	9.4
2	Kanada	3.0	3.6	6.2
3	Xitoy	18.4	20.7	24.9
4	Janubiy Koreya	18.2	20.8	25.9
5	Singapur	4.7	5.9	11.7
6	Birlashgan Qirollik	14.9	15.8	23.3
7	Qo’shma Shtatlar	9.9	11.0	14.0

Shu bilan birga, so‘nggi mavjud hisob-kitoblarga ko‘ra, global elektron tijorat savdosi 2019 yilda 26,7 trillion dollargacha ko‘tarildi, bu 2018 yilga nisbatan 4 foizga ko‘pdir.

Amerika Qo’shma Shtatlaridagi barcha elektron tijorat savdolarining 47% Amazon hissasiga to‘g’ri keladi. Elektron tijorat bozorida yana uchta kompaniya AQShni ifodalaydi: eBay, Walmart, Offerup va Wish. Ushbu kompaniyalarning barchasi onlayn savdo hajmi bo‘yicha dunyodagi eng yaxshi 10 talikka kiradi. Biroq, Amazon yalpi tovar qiymati bo‘yicha Xitoy raqobatchilari Taobao va Tmalldan keyin

⁷ Rutko Dina. International Experience in the Development of Electronic Commerce and Its Application in the Republic of Belarus // Economic Alternatives, 2024, Issue 3, pp. 473-484

⁸ Birlashgan Millatlar Tashkiloti Savdo va Taraqqiyot (UNCTAD) <https://unctad.org/> rasmiy saytidagi ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

uchinchi o'rinda turadi. Ikkala platforma ham Osiyodagi yetakchi onlayn-tijorat provayderi Alibaba Group tomonidan boshqariladi.

Osiyo elektron tijorat uchun katta bozor salohiyatiga ega. 2023 yilda Osiyoda elektron tijorat 42 foizga o'sdi. Kelgusi yillarda kuchli o'sish davom etishi prognoz qilinmoqda, natijada 2025-yilga borib 2 trillion dollarga yetadigan elektron tijorat bozori deyarli ikki baravar ko'payadi. Shunday qilib, Osiyo mintaqasi 2021-2025 yillarda eng yuqori o'sishni ko'rsatadi, bu esa katta investitsiyalar bilan birlashtiriladi.

Xitoy hozirda dunyodagi yetakchi elektron tijorat chakana sotuvchisi hisoblanadi. Bir necha yil oldin, global B2C bozori 1,7 trillion dollar yoki global chakana savdoning 7,4 foizini tashkil etdi, Xitoy esa ushbu bozorning uchdan biridan ko'prog'ini - 35,4 foizni tashkil etdi. Bugungi kunda Xitoyda 850 million kishi elektron tijorat ishtirokchilaridir va 2024 yilga kelib bu auditoriya 1 milliarddan oshmoqda. Kuchli infratuzilmasi, ko'p sonli o'yinchilar, turli xil savdo modellari va mobil aloqaga yo'naltirilgan iste'molchilar bilan Xitoy eng innovatsion bozor hisoblanadi⁹.

Dunyodagi eng yirik uchta elektron tijorat bozorlari – AQSh, Xitoy va Yevropani solishtirsak, Xitoy 2023- yilda eng katta bozor bo'lgan va 2027-yilgacha yetakchi bo'lib qoladi. Xitoy bozori 2023-yilda 1,318,7 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Daromadlar yillik o'rtacha o'sish surati 2027 yilgacha 12,2% ga o'sishi kutilmoqda, natijada daromad 2,088,2 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, Xitoy bozori uchta asosiy mintaqaning eng katta o'sish sur'atlarini ko'rsatishi kutilmoqda. AQSh bozorida 2023-yilda 925,4 milliard AQSh dollari miqdoridagi daromad olindi. Yillik o'rtacha o'sish suratining 11,2% ga ko'ra, bozor 2027-yilga kelib Xitoyning daromadidan 1415,8 milliard dollarga yetishi kutilmoqda¹⁰.

Rossiya elektron tijorat misolida "Molotok.ru" foydalanuvchilarining 59 foizi Internetdagi mahsulotlar arzonligi, 58 foyizi qulaylik tufayli Internetda xarid qilishini bildirgan bo'lsa, 42,6 foizi an'anaviy savdoda ehtiyoj uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni o'z vaqtida sotib olib bo'lmaydi deb hisoblaydi.

O'zbekistonda internetda mahsulot xarid qiluvchilarining asosiy qismi asosan (76 %) Toshkent shahri, Toshkent viloyati va boshqa viloyat shaharlarida yashaydi. Bundan tashqari, bu munosabat daromad va Internetdan foydalanish tajribasi to'g'risida so'z ketganda ham saqlanib qoladi.

Elektron tijoratni rivojlantirish mahalliy va xorijiy bozorlarda tovarlarni keng miqyosda sotish imkonini beradi. Shuningdek, xorijiy bozorlarda raqobat qilish uchun mamlakatimiz tadbirkorlariga yangi eshiklarni ochadi.

Jahon xalqaro auditorlik kompaniyasi ekspertlarining ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi besh yil ichida O'zbekistonda elektron tijorat bozori besh barobardan ziyod o'sib, Markaziy Osiyodagi eng tez rivojlanayotgan bozor mavqeyini mustahkamladi.

⁹ Rutko Dina. International Experience in the Development of Electronic Commerce and Its Application in the Republic of Belarus // Economic Alternatives, 2024, Issue 3, pp. 473-484

¹⁰ Baymuradov Sh. O'zbekistonning elektron tijorat strategiyasi: xorijiy bozorlarda raqobat qilishning asosiy yo'llari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2023-yil, oktyabr. № 10-son.

Sanoatning faol o'sishi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini va Internet foydalanuvchilari ulushining ko'payishi, Uzum Market marketpleysining paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Elektron tijorat pozitsiyalarini mustahkamlashda va yangi natijalarga erishishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash muhim rol o'ynaydi. "Elektron tijorat to'g'risidagi qonun", "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasi, "Elektron tijoratni rivojlantirish strategiyasi" ni qabul qilish, IT-parklarning barpo etilishi elektron tijorat sohasida yangi imkoniyatlar kaliti bo'ldi.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekistonning elektron tijorat sohasidagi xorijiy bozorlarda muvaffaqiyatli ravishda raqobat qilishning asosiy yo'llarini va strategiyalarini tahlil qilindi. Ilmiy va amaliy usullar orqali xorijiy bozorlar tahlili olib borildi. Xorijiy bozorlarda muvaffaqiyatli ravishda raqobat qilishda, lokal tadbirkorlar uchun elektron tijorat imkoniyatlarini rivojlantirish, xususan, xorijiy savdo platformalaridan foydalanish, yangi bozorlarga kengayish imkoniyatlarini aniqlash maqsadga muvofiq. Elektron tijoratda xizmat ko'rsatish, to'lov tizimi, va loyihalarni rivojlantirishda xorijiy bozorlardagi eng so'nggi o'zgarishlarga e'tibor berish, tadbirkorlarni va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash talab etilmoqda.

Tahlillarga ko'ra, hozir yurtimiz miqyosidagi onlayn xaridlarning aksariyati mahalliy do'konlarda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasidagi onlayn-xaridorlar uchun asosiy mamlakat esa Xitoy Xalq Respublikasi hisoblanadi. Demak, aholi va tashkilotlarning elektron tijorat muhitiga jalb etilishi, xorij bozoriga chiqish va chet ellik hamkorlar bilan ishslash ko'rsatkichlari hozircha yetarli darajada emas.

Vaholanki, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti (YAIM)da axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda elektron tijorat daromadlari ulushini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bunda onlayn do'konlar soni ortib borayotgani va xaridorlar ham bunga moslashayotgani quvonarli albatta. Ammo tizimni qiyosiy jihatdan yanada kengroq o'rganish talab etiladi. Shu orqali qator takliflar ham o'rta ga tashlanadi.

Masalan, tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning elektron shakllarida axborot xavfsizligini ta'minlovchi aloqa va telekommunikatsiya infratuzilmasini takomillashtirish lozim. Shuningdek, elektron tijorat sohasidagi amaldagi me'yoriy-huquqiy bazani qayta ko'rib chiqish va muvofiqlashtirish, biznes uchun elektron tijoratni qo'llab-quvvatlovchi onlayn ilovalarni ishlab chiqish, mamlakat fuqarolari o'rtaida elektron tijorat bo'yicha savodxonlikni oshirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarini doimiy o'tkazish, elektron pul bozorini rivojlantirish va elektron hamyonlarni ommalashtirishga ko'maklashish elektron tijoratni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman, bir narsa ayonki, elektron tijoratning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi yaqin kelajakda doimiy ravishda oshib boradi. U nafaqat iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlar faoliyati, balki aholi turmush darajasiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 2022-yil 29-sentabrdagi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘RQ-792-sonli Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni, Toshkent 2020-yil 5-oktabr
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 373-sonli Qarori, Toshkent 2021-yil 15-iyun
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-sonli Qarori, Toshkent 2020-yil 28-aprel
5. E-Commerce 2020-2021: Business, Technology and Society, e Book, Global Edition” Kenneth C. Laudon, Cfral Guercio Traver. –2020
6. D.M. Rasulev, S.K. Vapoyev. Elektron tijorat. Darslik. –T.: –2022
7. Lapidus L.V., Monograph: Digital economy: management of electronic business and electronic commerce - M.: INFRA-M, 2018 - 381 p.
8. Suyunov D., Kenjabayev A., Ro’ziyev A. Elektron tijorat. Darslik. -T.: 2023. –298 b.
9. Rose Helen (2023). What Is The Ecommerce System Meaning And Required Resources? // CMSmart ecommerce solutions. URL: <https://cmsmart.net/community/what-is-the-ecommerce-system-meaning-and-required-resources>
10. S.S. Gulyamov, R.H. Ayupov, O.M. Abdullayev, G.R. Baltabayeva. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari: O‘quv qo’llanma. — T.: "Iqtisod-Moliya", 2019, - 380 b.
11. Baymuradov Sh. O‘zbekistonning elektron tijorat strategiyasi: xorijiy bozorlarda raqobat qilishning assosiy yo‘llari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2023-yil, oktyabr. № 10-son.
12. Rutko Dina. International Experience in the Development of Electronic Commerce and Its Application in the Republic of Belarus // Economic Alternatives, 2024, Issue 3, pp. 473-484
13. R.H. Ayupov, G.R. Baltabaeva. Raqamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. T.: TMI, 2018, 190 bet.
14. Клаус Швабс. Четвертая промышленная революция. – М.: Эксмо, 2016. – С. 30

15. Ефимова Н.А., Тарасов А.С. Совершенствование работы интернет-магазина // Вестник Белгородского университета кооперации, экономики и права. 2018. № 5 (72). С. 174-183.
16. Колесниченко С.А. KPI и повышение эффективности работы интернет-магазина // Экономика. Бизнес. Информатика. 2016. Т. 2. № 3. С. 39-46.
17. Фалеева Т.О. Выбор метода прогнозирования продаж интернет-магазина // Поиск (Волгоград). 2017. № 2 (7). С. 52-56.
18. Хапилина К.А. Современные проблемы управления предприятиями электронной торговли и их динамика развития в Украине // Образование и наука без границ: социально-гуманитарные науки. 2016. № 4. С. 109-111
19. Bragin L.A., Ivanov G.G., Panasenko S.V., Efimovskaya L.A., Karashchuk O.S., Krasilnikova E.A., Mayorova E.A., Nikishin A.F., Aleksina S.B., Boykova A.V., Tyunik O.R. / Ed. by S. Panasenko, A. Nikishin, E. Mayorova. Globalization of Trade Based on Innovations. Hamilton, 2018.
20. Фалеева Т.О. Выбор метода прогнозирования продаж интернет-магазина // Поиск (Волгоград). 2017. № 2 (7). С. 52-56.
21. Мансурова Н.А., Алтынбаев И.О. Оценка работы интернет-магазина // Экономические исследования. 2018. № 1. С. 4.
22. Майорова Е.А., Никишин А.Ф., Панкина Т.В. Систематизация показателей развития электронной торговли // Азимут научных исследований: экономика и управление. 2020. Т. 9. № 1(30). С. 244-247
23. Захаров А.Н., Чехранова Т.А. Тенденции развития электронной торговли в международной практике // Российский внешнеэкономический вестник. 2019. № 6. С. 102-106.
24. Ядова Н.Е. Современное состояние мирового рынка электронной коммерции и перспективы его развития // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Экономика. 2019. № 2. С. 116-125.
25. Захаров А.Н., Чехранова Т.А. Тенденции развития электронной торговли в международной практике // Российский внешнеэкономический вестник. 2019. № 6. С. 102-106.
26. Чжон Б. Электронная торговля в Республике Корея: современное состояние и особенности // Вестник Института экономики Российской академии наук. 2019. № 5. С. 178-190.
27. Хань Ч. Современное состояние развития электронной торговли в Китае // Известия СанктПетербургского государственного экономического университета. 2017. № 4 (106). С. 166-170.
28. Khalilov N.Kh., Safina N.T. —Digitalization - as the main factor in the development of the quality management system of the textiles industry of the Republic of Uzbekistan|. BIO Web of Conferences 65, 03004 (2023)

- 29.Turdialiev, M. A. (2021). Regulation of mnes by domestic and international policies. Збірник наукових праць Scientia.
- 30.Gulyamov S.S. va boshqalar. Raqamlı iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. T.: “Iqtisod Moliya” nashriyoti, 2019. 386 bet
- 31.Гаврилов Л. П. Электронная коммерция: учебник и практикум для вузов / 3-е изд., доп. Москва : Издательство Юрайт, 2019. -477 с
- 32.Лапидус Л.В. Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией.—М.:ИНФРА-М,2018.-381 с.
- 33.<http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
- 34.<https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
- 35.<http://www.soliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti
- 36.<http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti